

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

SOTSIOLINGVISTIKA SOHASINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Jo‘rayeva Marjona Baxtiyor qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti ta’lim yonalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sotsiolingvistikaning asosiy yo‘nalishlari va ularning vazifalari haqida fikr yuritiladi. Hamda sinxron va diaxron, makro va mikro sotsiolingvistika, nazariy va amaliy sotsiolingvistika haqida alohida to‘xtalib, ularning organish obyektlari haqida kengroq tushuncha beriladi.

Kalit so‘zlar: til, til taraqqiyoti, sotsiolingvistika obyektlari, sinxron sotsiolingvistika, diaxron sotsiolingvisika, makro sotsiolingvistika, mikro sotsiolingvistika, nazariy sotsiolingvistika, amaliy sotsiolingvistika.

Sotsiolingvistikaning asosiy yo‘nalishlaridan biri sinxron va diaxron lingvistikadir. Lingvistikadagi til tadqiqining bu jihatlari Ferdinand de Sossyur davridan boshlab farqlanadi. Til o‘rganishdagi bunday bo‘linish sotsiolingvistikada ham mavjud. “Sinxron sotsiolingvistika til va jamiyat aloqalariga tegishli munosabatlar va jarayonlarni o‘rganadi. Munosabatlar bu aloqalarning statistikasini, jarayonlar esa ularning dinamikasini ifodalaydi”¹

Sinxron sotsiolingvistikada jamiyatda qo‘llanilayotgan tilning hozirgi davrga bog‘liq jihatlari o‘rganiladi. Turli davrlarga xos bo‘lgan tilning tizimlari va komponentlarini aynan shu sinxron sotsiolingvistika o‘z ichiga oladi.

Tillar ko‘p tilli jamiyatlarda ularning etnik xosligiga ko‘ra farqlanadi. “Ko‘p tilli jamiyat” bu jamiyatdagi keng qo‘llanuvchi ustuvor tildan tashqari, turli xil xalq vakillarining o‘z ona tilida munosabat olib borishidir. Masalan: “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili – o‘zbek tili”² bo‘lsa ham, yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qilishadi, ular ham o‘z ona tilida muloqot qilishga haqli. Demak, ko‘rinib turibdiki, tillar va xalqlar orasida munosabatlar bir xil bo‘lmaydi. Yuqorida ta’kidlaganimiz bir tomondan bo‘lsa, ikkinchi tomondan davlat tili sifatida e’tirof etilgan tildan foydalanish uchun etnoslar mavjud emas. Bunga misol tariqasida Afrikadagi suaxili tilini aytishimiz mumkin.

Sinxron sotsiolingvistikada tilning turli davrlarga xoslik jihatini ko‘rishimiz uchun misol keltiramiz: “Aytaylik, 6-asr eski o‘zbek adabiy tili, 7-19-asrlardagi o‘zbek tili hamda 20-asr boshlaridagi o‘zbek adabiy tili va uning taraqqiyot qonuniyatlarini sinxron (hozirgi davr) nuqtai nazaridan organish mumkin”.³

1 Sh. Usmanova, N. Bekmuxammedova, G. Iskandarova. “Sotsiolingvistika”. Toshkent. “Universitet” – 2014. 62-bet.

2 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. “O‘zbekiston”. Toshkent – 2023.

3 arxiv.uz. Sinxron sotsiolingvistikaning mazmuni va mundarijasи

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Sinxron sotsiolingvistikaning asosiy vazifasi dunyodagi qaysi til bo‘lishidan qat’iy nazar uning hozirgi ko‘rinishini, etnos va davlatlarning hayotini o‘rganishdir. Bir soz bilan aytganda, sinxron sotsiolingvistika tilning ijtimoiy jihatlarini, adabiy til, so‘zlashuv tili, dialektlarni o‘rganadi.

Diaxron sotsiolingvistika grekcha “diaxron” so‘zi “ikki davr bilan bog‘liq” degan ma’noni anglatadi. Diaxron sotsiolingvistika sinxron sotsiolingvistikadan farq qiladi. Diaxron sotsiolingvistikada tilning tarixiy taraqqiyoti, harakatlanish tizimi o‘rganiladi. Asosan, tilning shakllanib hozirgi kunga qadar qanday bosqichlarni bosib o‘tganligi tilning holatlarini qamrab oladi. Sotsiolingvistikada, asosan, tilning taraqqiyot vazifasi tilning o‘zgaruvchanligi bilan bog‘liq. Diaxron sotsiolingvistika orqali juda ko‘plab muammolarni bartaraf etish mumkin. Til taraqqiyotining tarixiy shakllanishi, ijtimoiy-tarixiy tiplar, tilning qonuniyatları, ijtimoiy ma’no ifodalash kabi bir qancha masalalar diaxron sotsiolingvistikaning vazifasidir.

Sotsiolingvistika obyektlarning o‘rganilish ko‘lamiga ko‘ra, mikro va makro sotsiolingvistikaga bo‘linadi. Makro sotsiolingvistika butun bir jamiyatning global rivojlanishi bilan shug‘ullanasa, mikro sotsiolingvistika, asosan, bir shaxsnинг ijtimoiy guruhlarini o‘rganish bilan shug‘ullanadi.

Makro sotsiolingvistika bir jamiyatning yoki butun bir xalqning misolida ikki tillilikka bag‘ishlangan ko‘plab ishlarni; tillarni me’yorlashtirish, til siyosati va lisoniy rejalashtirish masalalarini ko‘rib chiqadi. Bundan tashqari makro sotsiolingvistika ikki tillilik muammosini, ijtimoiy-kommunikativ tizimning muloqot sohalarini o‘z ichiga oladi.

Mikro sotsiolingvistika o‘z nomi bilan aytganidek, kichik jamolar: oila, maktab, korxona, tashkilotlarda tilning ishlatilishini organadi. Kichik jamolarda qo‘llaniluvchi til vositalari, e’tiborda emas, biroq ularda ko‘proq til taraqqiyoti bilan bog‘liq vositalar mavjud. Kichik jamoa sozlarini tinglash orqali ham jamiyatdagi til muammolarining bir qanchasini bartaraf etish mumkin. Chunki inson, asosan, “yaratuvchi” timsolida gavdalaniadi. Mikro sotsiolingvistikada jamoa a’zolari qaynona va kelin, ota va ona, o‘qituvchi va o‘quvchilarining nutqiy muloqotlarini tadqiq qilish keng tarqalgan.

Sotsiolingvistik nazariya tilning jamiyat bilan bog‘liq munosabatlarining tadqiqot muammolari bilan shug‘ullanadi. Ya’ni tilning ijtimoiy hodisa ekanligi, til taraqqiyotiga xos xususiyatlarni ilmiy jihatdan asoslab beradi.

“Sotsiolingvistikaning nazariyachilar tilning ijtimoiy omillariga ommaviy empirik materiallarni bog‘lash zaruratini dastlabki bosqichlaridayoq anglab yetishgan edi. 20-asrning 60-yillarda Rossiyada M.V. Panov, AQSHda U.Labov bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan holda sotsiolingvistik tadqiqotlarning zaruriy bosqichi va muayyan nazariy asoslarini isbotlash usuli sifatida tajribaga murojaat qilishgan. Mazkur xatti-harakatlar tajribaviy sotsiolingvistikaning rivojlanishiga turtki bo‘lgan”.⁴

Har bir sohada nazariy jihatlar e’tirof etilganidan va aniq xulosalar chiqarilgandan so‘ng amaliyotda, albatta, qo‘llab ko‘riladi. Amaliyot bu bilimlarni shu sohada aynan o‘rganish va uni yanada takomillashtirish uchun xizmat qiladi.

Amaliy sotsiolingvistikaning asosini davlat tilini yoki chet tillarni o‘qitish, til siyosati ishlab chiqish va amaliy choralarini ko‘rib chiqishni tashkil etadi.

⁴ Sh. Xudoyqulova. “Sotsiolingvistika” o‘quv qo’llanma”. Guliston – 2018. 58-bet.

ILM FAN XABARNOMASI

Ilmiy elektron jurnali

Sotsiolingvistik nazariyalarni amaliyotda qo'llash uchun, ma'lum bir tilning vaziyatlaridan kelib chiqib qo'llaniladi. Ya'ni ko'p tilli davlatlar bilan bir tilli davlatlar orasidagi muammolar aynan bir xil emas. Shuning uchun ham sotsiolingvistik muammolarni ko'rib chiqish va sotsiolingvistikaning amaliy jihatlarini belgilash turlichadir.

Xulosa qilib aytganda, sotsiolingvistikaning yo'nalishlari ya'ni sinxron va diaxron sotsiolingvistika, makro va mikro sotsiolingvistika, amaliy va nazariy sotsiolingvistika bularning barchasi tilning asosiy vazifasini bajarishga va til rivojiga hissa qo'shishga yo'naltirilgan. Sotsiolingvistika sohasi jamiyat va til o'rtaqidagi munosabatlarni o'rgansa, sotsiolingvistikaning yo'nalishlari bu munosabatlarni yanada chuqurroq o'rganishi uchun imkoniyat yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Usmanova, N. Bekmuxammedova, G. Iskandarova. "Sotsiolingvistika". Toshkent. "Universitet" – 2014.
2. Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston". Toshkent – 2023 O'zbekiston
3. Sinxron sotsiolingvistikaning mazmuni va mundarijasi arxiv.uz.
4. Xudoyqulova. "Sotsiolingvistika" o'quv qo'llanma". Guliston – 2018. Sh.